QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
QDTU

# INNOVATSION IQTISODIYOT

*Ilmiy-amaliy elektron jurnal*

2026
№6

## ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

## INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar: Google Scholar Crossref OpenAIRE CyberLeninka

# INNOVATSION IQTISODIYOT

## ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

6-jild
6-son
Iyun, 2026

June, 2026
Volume 6
Number 6

## ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

## INNOVATIVE ECONOMY

Electronic scientific and practical journal

# INNOVATSION IQTISODIYOT

## ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X
ojs.kstu.uz
**Muassis:**
**Qarshi davlat texnika universiteti**

**Tahririyat Kengashi raisi:**

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:**

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Mas'ul muharrir:**

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

**Texnik muharrir:**

S.J.Qulmurotov

*Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.*

*Tahririyat manzili:*

*180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy Tel.: +998 (75) 221 09 23*
*+998 (93) 902 72 63*
*Faks: +998 (75) 221 1395*
*innoeconomic@kstu.uz*

"Innovatsion iqtisodiyot" ilmiy - amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

**Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:**

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

**TAHRIRIYAT KENGASHI:**

**Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:**

*Ovchinikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)*
*Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)*
*Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)*
*Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)*
*Kusainov Xalel Xaymullievich – i.f.d., professor, akademik (Qozog'iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)*
*Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)*
*Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)*
*Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do'stligi universiteti)*
*Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)*
*Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)*
*Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)*
*Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)*
*Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)*
*Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)*
*Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do'stligi universiteti)*
*Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)*
*Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)*
*Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)*
*Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)*
*Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)*

**Tahririyat Kengashi a'zolari:**

*Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik*
*Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor*
*Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor*
*Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor*
*Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor*
*Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor*
*Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent*
*Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor*
*Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent*
*Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent*
*Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent*
*Aliqulov Azamat Tuyg'unovich -i.f.f.d., (PhD), dotsent*
*Aminov Fazlitdin Baxadirovich- i.f.n., dotsent*
*Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent*
*Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent*
*Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent*
*Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent*
*Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent*
*Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent*
*Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent*
*Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent*
*Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent*
*Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)*
*Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)*
*Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)*
*Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent*

# ИННОВАТSIОННАЯ ЭКОНОМИКА

## Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

**Учредитель:**
**Каршинский государственный технический университет**
**Председатель редакционного совета:**

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

**Заместитель председателя редакционного совета:**

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук, профессор

**Ответственный редактор:**

Н.А.Очилова, PhD, доцент

**Технический редактор:**

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в электронной форме и публикуется через официальный сайт журнала.



*Адрес редакции:*
*180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225*

*Тел: +998 (75) 221 09 23*
*+998 (93) 902 72 63*
*Факс: +998 (75) 221 1395*
*E-mail:* innoeconomic@kstu.uz


Научно-практический электронный журнал «Инновационная экономика» включён в перечень национальных научных изданий на основании решения Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369**.**

**В журнале публикуются статьи по следующим рубрикам:**

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм


**Редакционная коллегия:**
**Международные члены Совета редколлегии:**

*Овчиников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)*
*Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор (Белорусский национальный технический университет)*
*Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор, (Кубанский государственный университет)*
*Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский государственный университет)*
*Кусаинов Халел Хаймуллиевич - д.э.н., профессор, академик (НААН Республика Казахстан)*
*Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)*
*Гибадуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент (Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт»)*
*Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник (Российского университета дружбы народов имени П.Лумумби)*
*Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент (Финансовый университет при Правительстве РФ)*
*Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент (Финансовый университет Правительство РФ)*
*Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н., профессор (Национальная академия наук Республики Таджикистан)*
*Перская Виктория Вадимовна – д.э.н., профессор (Финансовый университет при Правительстве РФ)*
*Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова)*
*Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор (Финансового университета Российской Федерации)*
*Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби)*
*Незамайкин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГГУ)*
*Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)*
*Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)*
*Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем управления РАН)*
*Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова)*

**Члены Совета редколлегии:**

*Гулямов Саидахрор Саидахмедович – д.э.н., профессор, академик*
*Пардаев Мамаюнус Каршибоевич – д.э.н., профессор*
*Навруз-зода Бахтиёр Негматович – д.э.н., профессор*
*Хатамов Очилди Курбанович – д.э.н., профессор*
*Файзиева Ширин Шодмоновна – к.э.н., профессор*
*Жумаева Гулрух Журакуловна – к.э.н., профессор*
*Эгамбердиева Салима Раимовна – к.э.н., доцент*
*Еркаева Гулбахор Панжиевна – к.э.н., профессор*
*Якубова Шамшинур Шухратовна – д.э.н., (DSc), доцент*
*Амиркулов Шухрат Олимович – д.ф.э.н., (PhD), доцент*
*Самиева Гулноза Тохировна – д.ф.э.наук., (PhD), доцент*
*Алигулов Азамат Туйгунович – д.ф.э.н., (PhD), доцент*
*Аминов Фазлитдин Бахадирович – к.э.н., доцент*
*Хужакулова Нигора Рустамовна – д.ф.э.н., (PhD), доцент*
*Туробов Шерзод Алишерович – д.ф.э.н., (PhD), доцент*
*Алимова Муниса Юльчиевна – д.ф.э.н., (PhD), доцент*
*Эргашева Насиба Рахматуллаевна – д.э.н., (DSc), доцент*
*Бобокулов Санжар Бахромкулович – д.ф.э.н., (PhD), доцент*
*Джалилов Рахмонкул Хамидович – д.ф.э., (PhD), доцент*
*Номазов Бахром Бобомуродович – д.ф.э.н., (PhD), доцент*
*Алимханова Нигора Алимхановна – д.ф.э.н., (PhD), доцент*
*Джанузаков Мирзабек Кулмаматович – д.ф.э.н., (PhD), доцент*
*Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна – д.ф.э.н., (PhD)*
*Турсунова Азиза Хошимовна – д.ф..э.н., (PhD)*
*Холлиев Шерали Бахтиёрович – д.ф.э.н., (PhD)*
*Панджиев Самиджон Аликулич — PhD, доцент*

# Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

# Small business and private entrepreneurship

# Малый бизнес и частное предпринимательство

UDK: 334.021
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.6.6.2026.17

# KICHIK VA O'RTA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH TIZIMINI BAHOLASH VA PROGNOZLASHTIRISH USULLARI

*Risbekova Dilfuzaxon Jaloliddin-qizi*

# МЕТОДЫ ОЦЕНКИ И ПРОГНОЗИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ ПОДДЕРЖКИ МАЛОГО И СРЕДНЕГО БИЗНЕСА

*Рисбекова Дилфуза Джалолиддин кизи*

# METHODS FOR EVALUATING AND FORECASTING THE SMALL AND MEDIUM-SIZED BUSINESS SUPPORT SYSTEM

*Dilfuza Jaloliddin qizi Risbekova*

Received: June 7, 2026 Revised: June 8, 2026 Accepted: June 9, 2026 Published: June 30, 2026

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada kichik va oʻrta biznesni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash tizimining samaradorligini baholashning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Kichik va oʻrta biznes faoliyatini tavsiflovchi asosiy iqtisodiy koʻrsatkichlar tahlil qilinib, ularni baholashda qoʻllaniladigan usullar yoritilgan. Shuningdek, sohani rivojlantirish istiqbollarini aniqlashda prognozlashtirish usullarining ahamiyati koʻrib chiqilgan hamda qoʻllab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish boʻyicha takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit soʻzlar:** kichik va oʻrta biznes, davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash, iqtisodiy samaradorlik, baholash usullari, prognozlashtirish, investitsiyalar, tadbirkorlik.

**Аннотация:** В данной статье исследованы теоретические и практические аспекты оценки эффективности системы государственной поддержки малого и среднего бизнеса. Проанализированы основные экономические показатели деятельности субъектов малого и среднего бизнеса, а также рассмотрены методы их оценки. Особое внимание уделено значению методов прогнозирования при определении перспектив развития сектора. На основе проведенного анализа разработаны предложения по совершенствованию механизмов государственной поддержки предпринимательства.

**Ключевые слова:** малый и средний бизнес, государственная поддержка, экономическая эффективность, методы оценки, прогнозирование, инвестиции, предпринимательство.

**Abstract:** This article examines the theoretical and practical aspects of evaluating the effectiveness of the state support system for small and medium-sized businesses. The main economic indicators characterizing the activities of small and medium-sized enterprises are analyzed, and the methods used for their evaluation are discussed. Particular attention is paid to the role of forecasting methods in determining the future development prospects of the sector. Based on the analysis, recommendations are proposed to improve the mechanisms of state support for entrepreneurship.

**Keywords:** small and medium-sized businesses, state support, economic efficiency, evaluation methods, forecasting, investments, entrepreneurship.

## KIRISH

Jahon iqtisodiyotida kichik va oʻrta biznes iqtisodiy oʻsishni ta'minlash, yangi ish oʻrinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish hamda raqobat muhitini shakllantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi shuni koʻrsatadiki, kichik va oʻrta biznesni samarali qoʻllab-quvvatlash iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu sababli mazkur sektorni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish va ularning samaradorligini baholash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Oʻzbekistonda soʻnggi yillarda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, biznes yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda kichik va oʻrta biznes

subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, imtiyozli kreditlar ajratish, subsidiyalar berish, soliq imtiyozlarini qo‘llash va investitsion faoliyatni rag‘batlantirish orqali tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faolligini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Natijada kichik va o‘rta biznesning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi hamda investitsion faolligi ortib bormoqda. Biroq davlat tomonidan amalga oshirilayotgan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini muntazam baholab borish, mavjud muammolarni aniqlash va kelgusidagi rivojlanish tendensiyalarini prognozlashtirish zarurati saqlanib qolmoqda. Bu esa kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash tizimini baholash va prognozlashtirishning zamonaviy usullarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash tizimini baholash va prognozlashtirish usullarining nazariy hamda amaliy jihatlarini o‘rganish, sohaning asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish bo‘yicha ilmiy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish hamda uni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash masalalari iqtisodiyot fanining muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu masalalarning nazariy va amaliy jihatlari ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Xususan, xorijiy iqtisodchi olimlardan Joseph Schumpeter, Peter Drucker, Michael Porter va boshqalar tadbirkorlikning iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni, innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish hamda kichik biznesning raqobatbardoshlikni oshirishdagi ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab berganlar. Ularning ilmiy ishlarida tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning institutsional va iqtisodiy mexanizmlariga alohida e’tibor qaratilgan.

MDH mamlakatlari olimlaridan Abel Aganbegyan, Yevgeniy Yasin va boshqa tadqiqotchilar tomonidan kichik biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning iqtisodiy samaradorligi, moliyalashtirish mexanizmlari hamda investitsion faollikni oshirish masalalari keng o‘rganilgan.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan Qalandar Abdurahmonov, Bahodir Xodiyev, Muxtor Hamidov va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqotlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ularni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, investitsiyalarni jalb etish hamda davlat tomonidan yaratilayotgan iqtisodiy shart-sharoitlarning samaradorligi masalalari yoritilgan. Shu bilan birga, olib borilgan tadqiqotlarda kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash tizimini kompleks baholash hamda uning istiqboldagi rivojlanishini prognozlashtirish masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan. Ayniqsa, zamonaviy iqtisodiy sharoitda davlat tomonidan qo‘llanilayotgan moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarning samaradorligini baholash va prognozlashtirish usullarini takomillashtirish zarurati mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Mazkur holat kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash tizimini baholash va prognozlashtirish usullarini yanada chuqur o‘rganish, mavjud mexanizmlarning samaradorligini aniqlash hamda ularni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishni taqozo etadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik va o‘rta biznes iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, mamlakatda iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi daromadlarini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli ushbu sektorni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimining samaradorligini baholash va rivojlanish istiqbollarini prognozlashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 2021–2025-yillar kesimida keltirilgan statistik ma’lumotlar kichik va o‘rta biznes ko‘rsatkichlarida barqaror pasayish tendensiyasi mavjudligini ko‘rsatadi. Umuman olganda, ushbu davrda ko‘rsatkich 56,3 foizdan 52,2 foizgacha kamaygan bo‘lib, bu 4,1 foizlik pasayishni anglatadi.



**1-rasm. O‘zbekistonda kichik tadbirkorlikning YAIMdagi ulushi(%)**

Diagramma ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki:

• 2021–2022-yillar oralig‘ida eng sezilarli pasayish kuzatilgan (56,3% → 54,3%), ya’ni 2,0 foiz bandga kamaygan.

• 2022–2023-yillarda pasayish nisbatan sekinlashgan (54,3% → 53,8%).

• 2023–2024-yillarda juda kichik o‘zgarish qayd etilgan (53,8% → 53,5%).

• 2024–2025-yillarda esa pasayish yana davom etib, 52,2% ga tushgan.

Umumiy tendensiya shuni ko‘rsatadiki, davr mobaynida ko‘rsatkich barqaror, lekin sekin pasayuvchi trendga ega.

Davlat qo‘llab-quvvatlash tizimining samaradorligini baholovchi muhim ko‘rsatkichlardan yana biri investitsiyalar hajmi hisoblanadi. So‘nggi yillarda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshgan.




**2-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi (hududlar kesimida)**

2021–2024-yillarda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi respublikaning deyarli barcha hududlarida o‘sish tendensiyasini namoyon etgan. Diagramma ma’lumotlariga ko‘ra, investitsiyalar hajmi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Toshkent shahri hissasiga to‘g‘ri kelib, 2021-yildagi qariyb 58 trln so‘mdan 2024-yilda 91 trln so‘mdan ortiq darajaga yetgan. Bu esa poytaxtda tadbirkorlik faoliyati, biznes infratuzilmasi va investitsion jozibadorlikning yuqoriligidan dalolat beradi.

Hududlar kesimida Toshkent viloyati ham investitsiyalar hajmining sezilarli o‘sishi bilan ajralib turadi. Xususan, 2021-yilda 28 trln so‘m atrofida bo‘lgan ko‘rsatkich 2024-yilda 73 trln so‘mdan oshgan. Shuningdek, Buxoro, Namangan, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarida ham investitsiyalar hajmi yildan-yilga ortib borganligi kuzatiladi.

Nisbatan past ko‘rsatkichlar Sirdaryo, Xorazm va Qoraqalpog‘iston Respublikasida qayd etilgan bo‘lsa-da, ushbu hududlarda ham 2021–2024-yillar davomida investitsiyalar hajmining o‘sish tendensiyasi saqlanib qolgan. Bu holat mamlakatda kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash va hududlarda investitsion muhitni yaxshilash bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning ijobiy natijalarini aks ettiradi.

Umuman olganda, tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga yo‘naltirilayotgan investitsiyalar hajmi ortib bormoqda. Mazkur jarayon iqtisodiyotning modernizatsiyalashuvi, yangi ish o‘rinlarining yaratilishi hamda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish hamda ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash iqtisodiy o‘sishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda ushbu sohani rag‘batlantirish maqsadida soliq imtiyozlari, subsidiyalar, imtiyozli kreditlar va investitsion dasturlarni amalga oshirish orqali qulay biznes muhiti shakllantirilmoqda. Tahlillar natijasida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 2021–2024-yillar davomida barcha hududlarda o‘sish tendensiyasiga ega ekanligi aniqlandi.

Ayniqsa, Toshkent shahri va Toshkent viloyatida investitsion faollikning yuqori darajada o‘sishi kuzatilgan bo‘lsa, ayrim hududlarda investitsiyalar hajmi nisbatan pastligicha qolmoqda. Bu esa hududlar o‘rtasida investitsion jozibadorlik va moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlari bo‘yicha tafovutlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, davlat tomonidan yaratilayotgan moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlar kichik va o‘rta biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR


1. Rustamova, X. M. (2025). Milliy iqtisodiyotda kichik va o‘rta biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning nazariy asoslari. Science and Education, 6(3), 476–482.
2. Ahmedov, O., & Nurqulov, N. (2025). Kichik biznes va o‘rta biznesni rivojlantirish orqali aholi farovonligini ta’minlash. GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT Journal.
3. Toshboyev, M. (2024). Kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlashning xorij tajribasi uni O‘zbekiston sharoitida qo‘llash istiqbollari. GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT Journal.
4. Xudoberganov, Q. (2025). Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining milliy iqtisodiyotdagi o‘rni va ularni qo‘llab-quvvatlash strategiyalari. Qo‘qon Universiteti Xabarnomasi.
5. O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi. Kichik va o‘rta biznesning hududiy rivojlanishi statistik ma’lumotlar to‘plami. Tashkent, 2023.
6. Axmedova N.Sh. Qurilish sohasida kichik va yirik biznes subyektlarini rivojlantirishning ustuvor yo’nalishlari //Farg’ona Politexnika Instituti: “Arxitektura va shaxarsozlik o’tmish, bugun, kelajak” mavzusida respublika ilmiy va ilmiy-amaliy anjuman ma’ruzulari to’plami”. 2021 yil. 316-318
7. Axmedova N.Sh. Qurilishda kichik biznesni rivojlantirishda tadbirkorlik muhiti jozibadorligini ta’minlash masalalari//Toshkent arxitektura-qurilish universiteti: “Сборник материалов международной научно-практической конференции”. Toshkent. 2021 yil.
8. Abduvaliev, A. O‘zbekiston iqtisodiyotida kichik biznesning rivojlanish tendensiyalari. Tashkent: Iqtisodiyot Noshriyoti, 2021.
9. Rustamov, B. Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlari. Tashkent: Moliyaviy Tadqiqotlar, 2022.


## Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details


Risbekova Dilfuzaxon Jalolidin-qizi TAQU, “Iqtisodiyot va ko`chmas mulk” kafedrasi magistranti / Рисбекова Дилфуза Джалолиддин кизи магистрант кафедры «Экономика и недвижимость» Ташкентский архитектурно-строительный университет (ТАСУ) / Dilfuza Jaloliddin qizi Risbekova

Master's Student, Department of Economics and Real Estate

Tashkent University of Architecture and Civil Engineering (TUACE)

***E-mail:*** dilfuzarisbekova118@gmail.com

***ORCID:*** 0009-0000-9451-7454

# INNOVATSION IQTISODIYOT

## ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X